TEMIR YÖL MAŞINASOZLIGIDA MAHALLIYLAŞTIRIŞ DARAJASINI QIYMAT ZANJIRI BÖĞINLARI KESIMIDA BAHOLAŞ

Yuldaşeva S.A.
PhD professor Taşkent
Davlat Transport Universiteti,
yuldashevasaodat64@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24239478

Annotatsiya. Maqolada temir yöl maşinasozligida mahalliylaştiriş darajasini yagona umumiy körsatkiç bilan baholaşning çeklovlari körsatilgan. Qiymat zanjiri va global qiymat zanjirlari yondaşuvlari asosida tarmoq qiymat zanjirida oltita böğin ajratilgan. Böğinlar kesimida mahalliylaştiriş darajasini qöşilgan qiymat uluşi bilan vaznlab ölçaş metodikasi hamda kooperatsiya ustuvorliklarini aniqlaş matritsasi taklif etilgan. Şartli misolda an'anaviy körsatkiç mahalliylaştirişni oşirib körsatişi va yuqori qöşilgan qiymatli böğinlardagi böşliqni yaşirişi körsatilgan.

Kalit sözlar: mahalliylaştiriş darajasi, qiymat zanjiri, qöşilgan qiymat, import örnini bosiş, sanoat kooperatsiyasi, temir yöl maşinasozligi, kompozit indikator.

Özbekistonda mahalliy işlab çiqarişni kengaytiriş va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantiriş vazifalari 2026-yil 6-fevraldagi Farmonda belgilangan [1]. Bu vazifalarni bajarişda mahalliylaştiriş darajasini töğri ölçaş muhim ahamiyatga ega, çunki aynan şu körsatkiç asosida davlat qöllab-quvvatlaş çoralari va korxonalar dasturlari baholanadi.

Amaliyotda mahalliylaştiriş darajasi[1] köpinça tayyor mahsulot tannarxida mahalliy materiallar va komponentlar uluşi orqali ölçanadi. Biroq bu körsatkiç mahalliy qöşilgan qiymat qaysi bosqiçda yaratilayotganini körsatmaydi: import qilingan uzellarni yiğiş ham, yuqori texnologiyali komponentlarni işlab çiqariş ham bir xil umumiy natija berişi mumkin. Natijada mahalliylaştiriş dasturlari köpinça qöşilgan qiymati past bölgan yiğiş bosqiçida töxtab qoladi. Tadqiqot maqsadi — temir yöl maşinasozligida mahalliylaştiriş darajasini qiymat zanjiri böğinlari kesimida baholaş metodikasini işlab çiqiş.

M. Porter qiymat zanjiri konsepsiyasida korxona faoliyatini qiymat yaratuvçi alohida böğinlarga ajratgan [2]. G. Gereffi, J. Humphrey va T. Sturgeon global qiymat zanjirlarini boşqarişning beşta şaklini ajratib, mamlakatning zanjirdagi örni uning daromadini belgilaşini körsatgan [3]. R. Mudambi qiymat zanjirining boşlanğiç (tadqiqot, loyihalaş) va yakuniy (servis, marketing) böğinlarida qöşilgan qiymat yuqori, örtadagi işlab çiqariş va yiğişda esa past bölişini — «tabassum egri çiziği» (smile curve) qonuniyatini asoslagan [4]. G. Hufbauer va hammualliflari mahalliy tarkib talablari köpinça mahsulot narxini oşirişi va raqobatni çeklaşini körsatgan [5]. Temir yöl maşinasozligi qiymat zanjiri böğinlari 1-jadvalda keltirilgan.

[1]Mahalliylaştiriş darajasi — mahsulot qiymatida mamlakat içida yaratilgan qismning uluşi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1-jadval. *Temir yöl maşinasozligi qiymat zanjiri böğinlari*[2]

Böğin	Mazmuni	Qöşilgan qiymat darajasi
1. Xomaşyo va metallurgiya	Prokat, quyma, pokovka	Örta
2. Butlovçi qismlar va uzellar	Ğildirak juftlari, aravaçalar, tormoz va elektr jihozlari	Yuqori
3. Loyihalaş va muhandislik	Konstruktorlik hujjatlari, sinov, sertifikatlaş	Juda yuqori
4. Yiğiş	Vagon va lokomotivlarni yiğiş	Past
5. Ta'mirlaş va modernizatsiya	Rejali ta'mirlaş, hayotiy sikl davomida servis	Yuqori
6. Utilizatsiya	Hisobdan çiqariş, ikkilamçi resurslarni qayta işlaş	Past

Tadqiqotda tizimli yondaşuv, qiyosiy tahlil va kompozit indikatorlar quriş metodologiyasi qöllanildi [6]. Har bir böğin uçun mahalliylaştiriş darajasi qiymat asosida quyidagiça aniqlanadi:

$Lj = (Vj – Mj) / Vj,$

bu yerda Vj — j-böğinda yaratilgan umumiy qiymat, Mj — şu böğindagi import tarkibi. Umumiy körsatkiç böğinlarning qöşilgan qiymatdagi uluşi bilan vaznlanadi:

$Lw = \Sigma\, sj \cdot Lj,$

bu yerda sj — j-böğinning mahsulot qöşilgan qiymatidagi uluşi. Böğinlar uluşini ekspert baholaş orqali aniqlaşda ierarxiyalar tahlili usuli qöllanişi mumkin [7]. Uslubiyot aprobatsiyasi uçun şartli ma'lumotlardan foydalanildi; ular real korxona körsatkiçlarini aks ettirmaydi.

Vaznlangan va an'anaviy körsatkiçni qiyoslaş. Şartli misolda böğinlar böyiça mahalliylaştiriş darajasi va ularning qöşilgan qiymatdagi uluşi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. *Mahalliylaştiriş darajasini böğinlar kesimida hisoblaş (şartli misol)*[3]

Böğin	Qöşilgan qiymatdagi uluşi (sj)	Mahalliylaştiriş darajasi (Lj)	Hissasi (sj · Lj)
1. Xomaşyo va metallurgiya	0,10	0,70	0,070
2. Butlovçi qismlar va uzellar	0,30	0,25	0,075
3. Loyihalaş va muhandislik	0,15	0,10	0,015
4. Yiğiş	0,10	0,95	0,095

[2]Manba: [2–4] asosida muallif işlanmasi.

[3]Muallif hisob-kitobi (şartli ma'lumotlar).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Böğin	Qöşilgan qiymatdagi uluşi (sj)	Mahalliylaştiriş darajasi (Lj)	Hissasi (sj · Lj)
5. Ta'mirlaş va modernizatsiya	0,30	0,80	0,240
6. Utilizatsiya	0,05	0,90	0,045
Jami: vaznlangan körsatkiç Lw	**1,00**	**—**	**0,540**

Böğinlar böyiça oddiy örtaça 61,7 foizni, qöşilgan qiymat bilan vaznlangan körsatkiç esa 54,0 foizni taşkil etadi. Farq yangi harakat tarkibi işlab çiqarişda (1–4-böğinlar) yanada katta: oddiy örtaça 50,0 foiz, vaznlangan körsatkiç 39,2 foiz. Bunga sabab şuki, yuqori mahalliylaştiriş qöşilgan qiymati past bölgan yiğiş böğinida, past mahalliylaştiriş esa qöşilgan qiymati yuqori bölgan butlovçi qismlar va loyihalaş böğinlarida kuzatiladi.

Kooperatsiya ustuvorliklari matritsasi. Böğinlarni qöşilgan qiymat uluşi va mahalliy işlab çiqariş imkoniyati böyiça joylaştirib, törtta strategik soha ajratiladi (3-jadval).

3-jadval. *Kooperatsiya ustuvorliklarini aniqlaş matritsasi*[4]

Soha	Belgisi	Tavsiya etiladigan çora
Tezkor mahalliylaştiriş	Qöşilgan qiymat yuqori, mahalliy imkoniyat mavjud	Uzoq muddatli kooperatsiya şartnomalari, imtiyozli kreditlar
Strategik rivojlantiriş	Qöşilgan qiymat yuqori, mahalliy imkoniyat çeklangan	Litsenziya, qöşma korxona, muhandislik kadrlarini tayyorlaş
Minimal iştirok	Qöşilgan qiymat past, mahalliy imkoniyat mavjud	Mavjud quvvatlardan foydalaniş, qöşimça investitsiyasiz
Xorijiy kooperatsiya	Qöşilgan qiymat past, mahalliy imkoniyat çeklangan	Mintaqaviy yetkazib beruvçilardan xarid

Olingan natijalar R. Mudambi xulosasini temir yöl maşinasozligi uçun tasdiqlaydi [4]: mahalliylaştiriş yiğiş böğinida yuqori bölsa-da, mamlakat qöşilgan qiymatning asosiy qismini yaratuvçi böğinlarda iştirok etmaydi. Şu sababli mahalliylaştiriş dasturlarining maqsadi import uluşini qisqartiriş emas, mamlakat içida yaratilayotgan qöşilgan qiymatni oşiriş bölişi kerak.

G. Hufbauer va hammualliflari körsatganidek [5], qat'iy mahalliy tarkib talablari raqobatni çeklab, mahsulot narxini oşirişi mumkin. Şu sababli metodikada mahalliylaştirişning iqtisodiy çegarasi hisobga olinadi: agar mahalliy işlab çiqarişning hayotiy sikl xarajati import muqobilidan sezilarli yuqori bölsa, bu komponent «xorijiy kooperatsiya» sohasiga kiritiladi. Tadqiqot çeklovi — aprobatsiya şartli

[4]Muallif işlanmasi ([3; 4] asosida).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

ma'lumotlarda ötkazilgani; böğinlar uluşi muayyan mahsulot va korxona ma'lumotlari asosida aniqlaştirilişi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Temir yöl maşinasozligida mahalliylaştiriş darajasini yagona umumiy körsatkiç bilan baholaş mahalliy qöşilgan qiymatning haqiqiy hajmini oşirib körsatişi mumkin.
2. Mahalliylaştiriş darajasini oltita qiymat zanjiri böğini kesimida hisoblab, böğinlarning qöşilgan qiymatdagi uluşi bilan vaznlaş tavsiya etiladi.
3. Şartli misol an'anaviy körsatkiç bilan vaznlangan körsatkiç örtasida yangi harakat tarkibi böyiça 10,8 foiz punktlik farq bölişi mumkinligini körsatdi.
4. Kooperatsiya ustuvorliklarini tört sohali matritsa asosida belgilaş davlat qöllab-quvvatlaş çoralarini qöşilgan qiymati yuqori bölgan böğinlarga yönaltiriş imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2026, 6-fevral). Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida. https://president.uz/oz/lists/view/8927
2. Porter, M. E. (1985). Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance. Free Press.
3. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. Review of International Political Economy, 12(1), 78–104. https://doi.org/10.1080/09692290500049805
4. Mudambi, R. (2008). Location, control and innovation in knowledge-intensive industries. Journal of Economic Geography, 8(5), 699–725. https://doi.org/10.1093/jeg/lbn024
5. Hufbauer, G. C., Schott, J. J., Cimino, C., Vieiro, M., & Wada, E. (2013). Local content requirements: A global problem. Peterson Institute for International Economics.
6. OECD, & JRC. (2008). Handbook on constructing composite indicators: Methodology and user guide. OECD Publishing.
7. Saaty, T. L. (1980). The analytic hierarchy process. McGraw-Hill.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.